

Qabul qilindi: 06.07.2024 Chop etildi: 30.08.2024

UDK: 32.019.5

O‘ZBEK XALQ OG‘ZAKI IJODIYOTIDA ADOLATLI JAMIYAT TO‘G‘RISIDAGI ILK TASAVVURLAR IFODASI

*Kurbanbayeva Munavvara Kozibayevna, UrDU o‘qituvchisi, QMU
“Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrasida
mustaqil tadqiqotchisi*

EXPRESSION OF FIRST IDEAS ABOUT A JUST SOCIETY IN THE ORAL CREATION OF THE UZBEK PEOPLE

*Kurbanbaeva Munavvara Kozibaevna, teacher of UrSU,
independent researcher of the department “National idea,
foundations of spirituality and legal education” of QMU*

ВЫРАЖЕНИЕ ПЕРВЫХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ О СПРАВЕДЛИВОМ ОБЩЕСТВЕ В УСТНОМ ТВОРЧЕСТВЕ УЗБЕКСКОГО НАРОДА

*Курбанбаева Мунаввара Козибаевна, преподаватель УрГУ,
независимый научный исследователь кафедры
«Национальная идея, основы духовности и правового
воспитания» КГУ*

*Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq xalqlari tafakkurida,
xususan o‘zbek xalq og‘zaki ijodida adolatli jamiyat to‘g‘risidagi ilk
tasavvurlar ifodalanishi tahlil etiladi.*

*Kalit so‘zlar: adolatli jamiyat, fuqarolik jamiyati, odil
hukmdor, folklor, epos, doston, ertak, xalq qahramonlari, obraz,
personaj.*

*Abstract: This article analyzes the expression of the first
visions of a just society in the thinking of the peoples of the East,
especially in the Uzbek folklore.*

*Key words: just society, civil society, just ruler, folklore, epic,
epic, fairy tale, folk heroes, image, character.*

*Аннотация: В данной статье анализируется выражение
первых представлений о справедливом обществе народов
Востока, особенно в узбекском фольклоре.*

*Ключевые слова: справедливое общество, гражданское
общество, справедливый правитель, фольклор, эпос, былина,
сказка, народные герои, образ, персонаж.*

KIRISH. Insoniyatning ko‘p asrlik tajribasi, olimlarning izlanishlari natijalariga ko‘ra, aytish mumkinki, “fuqarolik jamiyati” tushunchasi muayyan davr, muhit, makon, mafkura, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy qarashlarga mutanosib ravishda shakllanib borgan. Qadimgi davrlarda aynan “Fuqarolik jamiyati” degan jumla ishlatilmasa-da, odamlar adolat, qonun, haqiqat ustuvor bo‘lgan,

barchaning teng huquqliligi ta’minlangan, moddiy farovonlik hukm surgan jamiyatni orzu qilganlar [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

Ushbu orzu va niyat yozuvchi va shoirlar asarlari, olimlarning ilmiy tadqiqotlarida [2] va undan ham avval ko‘plab millat va elatlarning xalq og‘zaki ijodi, folklorida o‘z aksini topgan. Masalan, turkiy xalqlar folkloriga mansub “Go‘ro‘g‘li” [3], “Alpomish” [4]



<https://orcid.org/0009-0002-6202-2064>

e-mail:

tamaddunnuri1@gmail.com

dostonlari, o'zbek xalq og'zaki ijodiyotiga mansub "Susambil", "Uch og'a-ini botirlar", "Kenja botir" singari ertaklar buning yaqqol namunasi bo'la oladi. "Markaziy Osiyoning eng qadimiy xalqlaridan bo'lgan o'zbek xalqi ma'naviy madaniyati tarixida so'z san'atining qadimgi turi hisoblangan xalq ijodi, ayniqsa, dostonlar g'oyat faxrli o'rin tutgan. Mehnatkash xalq ommasining g'oyaviy, axloqiy, ma'rifiy va estetik takomilida xalqning asarlar davomida turmush tajribalari, ozod va farovon hayotga intilishlari, adolatsizlikka qarshi kurashlari o'z ifodasini topgan. Bu borada "Alpomish" dostonining ahamiyati nihoyatda kattadir"[5].

Maqolada ilmiy bilishning dialektik, tarixiylik, kompleks yondashuv, kontent-analiz, mantiqiylik, analiz va sintez kabi usullariga tayanildi.

MUHOKAMA. Yuqorida tilga olingan asarlar ichida "Susambil" ertagiga alohida to'xtalishni lozim topdik. Chunki bu ertakda xalq o'zining adolatli, farovon, jabr-zulmga chek qo'yilgan jamiyat haqidagi orzularini va bu jamiyatning o'z tasavvuridagi modelini sodda tarzda Susambil mamlakati orqali ko'rsatib bergan. Ertak qahramonlari asosan jonivorlar bo'lib, ular majoziy ma'noda xalq vakillari bo'lgan ishchi-xizmatkorlar obrazidir. Bu ertakda ushbu jonivorlarning xo'jayini bo'lgan boy va uning o'g'illari jonivor emas, balki odam qiyofasida tasvirlangan. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, mazkur ertakda masal janri elementlaridan unumli foydalanilgan. Sababi, obrazlar inson qiyofasida bo'lib, o'z ismi bilan atalsa, bu hukmron qatlamga qarshi ochiqdan-ochiq qarshi turish, hattoki isyon sifatida qabul qilinishi mumkin edi. Shu tufayli, ushbu xalq og'zaki ijodi namunasida xizmatkorlar obrazini jonivorlar personajlari gavdalantirgan. O'z xo'jayinidan jabr-zulm ko'rgan, og'ir va mashaqqatli mehnat ostida ezilsa-da, mehnatiga munosib haq ololmagan, haq-huquqlari toptalgan, xo'rlangan insonlar timsoli bo'lgan personajlar – ho'kiz, eshak, xo'roz, kalamushlar va arilar orzularidagi makon Susambilga yaxshi hayot izlab yo'lga chiqadilar. Susambil haqida ertak personaji eshak o'z onasidan eshitgan bo'lib, "Susambil qanday joy?" degan savolga har safar: "Susambilda o'tning bo'lig'i, suvning tinig'i mo'l, unda azob-uqubat yo'q, maza qilib yurasan", -deb javob beradi. Ya'ni Susambilda:

1) farovonlik, to'kin-sochinlik (o'tning bo'lig'i, suvning tinig'i ya'ni oziq-ovqat mo'l);

2) ijtimoiy adolat va tenglik hukm suradi, inson inson tomonidan ezilmaydi (unda azob-uqubat yo'q, maza qilib, erkin yurasan).

Bu xalq tilida sodda qilib ifodalangan adolatli jamiyat ta'rifidir. Eng ahamiyatli jihati shundaki, ertak qahramonlari adolatli jamiyatda yashashni xohlaydilar, lekin uni qanday qurishni bilmaydilar va bu haqda o'ylab ham ko'rmaydilar. Qaylardadir mana shunday farovon, adolatli jamiyat borligiga ishonadilar va uni izlab safarga chiqadilar. O'zlari yashab turgan hayotni, muhitni, sharoitni o'zgartirish mumkin, degan o'y umuman xayollariga ham kelmaydi[6].

Yoki bo'lmasa, o'zbek xalq ertaklari, afsonalarida ko'p uchraydigan Humo qushi obrazi ham xalqning yaxshi hayot, to'kin-sochin, farovon turmush, adolatli jamiyat haqidagi orzulari natijasida vujudga kelgan. Humo qushi xalq og'zaki ijodida bir necha nomlar bilan atab kelingan. "Turkiy xalqlarda Simurg'ning Humo, Anqo, Davlat qushi, Baxt qushi, Marqumomo, Kuntubulg'on, Bulbuligo'yo va boshqa variantlari mavjud. Simurg' obrazi "Qahramon", "Oynai jahonnamo", "Rustam", "Kenja botir" kabi ertaklarda atroflicha tasvirlangan. Bu obraz yozma adabiyotda ham uchraydi" [7]. Jumladan, buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida ham barcha qushlar to'planib Simurg'ni, qator olimlar fikriga ko'ra, adolatli podshohni izlab uzoq safarga yo'l oladilar[8].

Humo yoki Simurg' nomli afsonaviy qush baxt, omad, davlat, tinchlik, ezgulik, adolat ramzi hisoblangan. U kimning boshiga qo'nsa yoki soyasi tushsa, shu odam eng baxtli bo'ladi, davlat va saltanatga erishadi, deb e'tiqod qilingan. Ko'pincha ertaklarda qaysidir yurtning podshosi vafot etsa yoki urushda halok bo'lsa, yoki taxt vorisi bo'ladigan farzandi bo'lmasa, Simurg' qushi uchirilgani va u kimning boshiga qo'nsa, shu odam podsho bo'lgani hikoya qilinadi. Simurg' ertaklarda mard, oliyanob, botir, oddiy xalq vakili bo'lgan kambag'al yigitlar, mehnatkash odamlarning boshiga qo'ngani va shu odamlar uzoq vaqt mamlakatni adolat bilan boshqargani, ularning davrida yurt obod bo'lgani aytiladi. Bu ham xalqning adolatli shoh, adolatli jamiyat to'g'risidagi ko'p asrlik orzu-armonlarining xayoliy ro'yobga chiqishidir. O'zbek xalq og'zaki

ijodi namunalari bo‘lgan boshqa ertak va dostonlarda ham ertak qahramonlari adolat, haqiqat istab yo‘lga chiqadilar, ya’ni haqiqatni o‘zga makonlardan axtaradilar. Shuningdek, yovuz kuchlar – devlar, yalmog‘izlar qo‘liga tushib qolgan vatandoshlarini, yoki go‘zal malikani qutqarish kabi qahramonliklar ko‘rsatish uchun safarga otlanadilar.

“O‘zbek xalq ertaklarida safar syujetni harakatga keltirgan muhim motivlardan bo‘lib, adabiyotshunos X.Egamov uni aktiv motivlar sirasiga kiritgan. Safar motivi, ayniqsa, sehrli-fantastik ertaklarda o‘zi bilan bog‘liq butun boshli yo‘nalish markazida turadi. Maishiy va hayvonlar haqidagi ertaklarda ham muhim o‘rin tutgan safar motivi qahramonni shakllantirish, faoliyatga undash va alal-oqibat murod-maqсадiga yetkazadigan muhim g‘oyaviy vositalardan sanaladi”[9].

Ayrim boshqa xalqlar, jumladan G‘arbiy Yevropa va Amerika xalqlari og‘zaki ijodida, ko‘pincha qahramonlarning faol, adolatsizlikka qarshi kurashuvchan obrazda ko‘rsatilishiga guvoh bo‘lamiz. Masalan, o‘rta asrlar ingliz balladalarining mashhur qahramoni Robin Gud adolatsiz boylarga qarshi kurashgani, ularni jazolagani haqida hikoya qilinadi. Albatta, uning bu ishi qonun doirasida bo‘lmagan ayon. Xalq o‘z orzusidagi qahramonini yaratar ekan, masalaning bu tomoniga e’tibor bermaganligi, Robin Gudni xaloskor sifatida tarannum etgani oydinlashadi. Ahamiyatlisi, u adolatli jamiyat izlab boshqa makonlarga ketmaydi, aksincha, o‘z yurtida adolat o‘rnatmoqchi bo‘ladi.

“Ma’lumki, xalqning donishmandligi, ruhi yurtning an’ana va urf-odatlarida, ayniqsa, xalq og‘zaki ijodida namoyon bo‘ladi. Folklor – bolalar adabiyotining eng sirli va g‘ayrioddiy janri. Shuningdek, folklorning eng mashhur qismlaridan biri ertakdir. Unda hayajonli syujet, jasur qahramonlar va o‘quvchilarni chindan ham o‘ziga tortadigan baxtli yakun bor. Ertaklar ichidan ularning eng qiziqarlilari bo‘lgan xalq ertaklari avloddan-avlodga o‘tadi. Bunday ertaklar xalqlar madaniyati, urf-odatlar va tarixining bir qismiga aylangan. Xalq og‘zaki ijodining ko‘plab janrlarida, jumladan, xalq ertaklarida ham voqelik, ham bosh qahramon realistik ifodalangan. Ko‘pgina folklor janrlaridagi asarlarda qahramonni badiiy tasvirlash tamoyillari umumiydir. Xalq ideal xislatlarga ega bo‘lgan, ommaga ergashadigan qahramonigina tan oladi. Shuning uchun ham deyarli barcha millat

folkloridagi qahramonlar beqiyos ideallashtirilgan. ... Folklor asarlaridagi shaxs nomlarini o‘rganish muayyan xalqning yashirin tarixini, qadimgi bilimlar tizimini aniqlashga to‘la asos bo‘la oladi. Shu bilan birga, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan ajoyib xayoliy ertaklar xalqning urf-odatlar, xulq-atvori, ruhiyatini to‘liq anglash imkonini berishi, shubhasiz”[10].

NATIJALAR. Modomiki, folklor xalqning o‘zligini, ijtimoiy-tarixiy tafakkurini, mentaliteti, fe‘l-atvorini ko‘rsatar ekan, shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, Sharq xalqlari, jumladan o‘zbek folklorida adolatli jamiyat borasidagi orzu-umidlar adolatli shoh bilan chambarchas bog‘liq. Bu yo‘nalishdagi ertaklarda adolatli podshohning qandaydir mo‘jizalar orqali taxtga chiqishi (masalan, Simurg‘ qushi yordamida xalq orasidan podsho tanlanishi) yoki yovuz kuchlarni yenggan bahodirning podshoh bo‘lishi va yurtni adolat bilan boshqarib, hamma joyni bog‘u bo‘stonga aylantirishi kabi motivlar yetakchilik qiladi.

Z.M.Islomovning ta’kidlashicha, “Fuqarolik jamiyati” kategoriyasi tarixan insoniyat taraqqiyotining, har bir davr mutafakkirlarining aql-idrok, erkinlik, farovonlik va adolat hukm suradigan ideal ijtimoiy tuzum modelini yaratish yo‘lidagi intilishlari bilan tavsiflanadigan alohida bir davrini aks ettiradi”[11]. Xalq o‘z folklorida mana shunday ideal tuzumni tarannum etganini yuqoridagi misollar orqali ko‘rib chiqdik.

XULOSA. Xalqimiz donoligi, tafakkuri mahsuli bo‘lgan folklor uning ma’naviy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlarining ko‘zgasidir. Yuqorida tilga olingan doston va eposlarda, ertak va naqllarda butun bir davrlar mafkurasi, o‘sha davrlar jamiyatining ijtimoiy tuzilishi, ijtimoiy qatlamlarning o‘zaro munosabatlari aks etgan. Bu asarlarning deyarli barchasida adolat va haqiqat, adolatli jamiyat izlanadi, ulug‘lanadi, orzu qilinadi. Bu esa, fuqarolik jamiyati haqidagi tushunchalarning ilk kurtaklaridir. Jamiyatda adolat qaror topishi uchun davlatni adolatli shoh boshqarishi lozim, degan xulosaga kelinadi. Ya’ni, Sharq mentalitetiga xos bo‘lgan ulug‘larga, hukmdorlarga itoat, ehtirom xalqning yetakchi, muhim xarakterli xususiyati bo‘lib maydonga chiqadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Almagul Bayrieva. Vakillik hokimiyati va fuqarolik jamiyati. Monografiya. Nukus, Qaraqalpaqstan, 2020.- B.5.
2. Kurbanbayeva M.K. Abu Rayhon Beruniyning fuqarolik jamiyati to'g'risidagi ilmiy qarashlari. "Journal of science-innovative research in uzbekistan" jurnali. 321-327-b.
3. Qalandarova Dilafro'z Abdujamilovna. "Go'ro'g'li" dostoni versiyalari Karl Rayxl tadqiqotlari misolida. //FarDU. Ilmiy xabarlar. 2021.№5.
4. Alpomish. Akademik nashr, Toshkent, 1999.
5. Artiqbay Abillayevich Yerejepov. "Alpomish" dostoni o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga qiziqishni shakllantirishning muhim manbai. // vol. 1 no. 35 (2023): GOLDEN BRAIN jurnali.
6. Kurbanbayeva M.K. Fuqarolik jamiyati institutlari shakllanishida fuqarolarning roli. <https://journals.uznauka.uz/index.php/lps/article/view/603>
7. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. @uzasgzt. 24 mart, 2023. <https://teletype.in/@uzasgzt/CgMBpJ045mV>
8. Kurbanbayeva M.K. Temuriylar davri mutafakkirlarining fuqarolik jamiyati g'oyalari ga oid qarashlari. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. International scientific - online conference. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13354918>
9. Ne'matova Hulkar Abdulbakiyevna. Ertaklarda safar motivining qo'llanilishi. // Obrazovaniye i innovatsionnie issledovaniya. 2022 god №4. DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.4.4.052>
10. A.F.Ismatov. Ingliz xalq ertak qahramonlari nomlarining lingvomadaniy xarakteri. O'zbekiston Milliy axborot agentligi. [https://cdn.uza.uz/2023/05/01](https://cdn.uza.uz/2023/05/01/https://cdn.uza.uz/2023/05/01/05/29/ADsXf4Os4hPobWkUokuWTCbBmuaLxsAf.pdf)
11. Islamov Z.M. Fuqarolik jamiyati: kecha, bugun, ertaga. –T.: 2002. 8-bet.

